

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

OBILOV MUZAFFAR ODILJON O‘G‘LI

INGLIZ VA O‘ZBEK PUBLITSISTIK MATNLARIDA
MODALLIK VOSITALARINING SEMANTIK-FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Obilov Muzaffar Odiljon o‘g‘li

Ingliz va o‘zbek publitsistik matnlarida modallik vositalarining semantik-funksional xususiyatlari..... 3

Obilov Muzaffar Odiljon o‘g‘li

Semantic and functional features of modal means in English and Uzbek journalistic texts 31

Обилов Музаффар Одилжон угли

Семантико-функциональные особенности модальных средств в английских и узбекских публицистических текстах 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 59

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

OBILOV MUZAFFAR ODILJON O'GLI

**INGLIZ VA O'ZBEK PUBLITSISTIK MATNLARIDA
MODALLIK VOSITALARINING SEMANTIK-FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil5099 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi ishi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismoilov G'ulom Mirzayevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abduvaliyev Muhammadjon Arabovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich
filologiya fanlari nomzodi (f.f.n), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05. raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "19" mart soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. tel.: (+99869228 -85-01; faks: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (1752) raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. tel.: (+99869228 -85-01; faks: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "6" mart kuni tarqatildi.

(2025-yil "04/06" 21.12 dagi 04/06 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.I.Ziyayev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

N.A.Mamadjanova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Q.A.Sidiqov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi hamda globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashib borishi natijasida ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati hayotida tutgan o'rni va ta'sir doirasi kun sayin ortib bormoqda. Xususan, internet jurnalistikasi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ommaviylashayotgan bir davrda an'anaviy ommaviy axborot vositalari, jumladan, gazetalarning o'z o'quvchilarini saqlab qolish, ularning ehtiyoj va talablariga muvofiq ravishda faoliyat olib borish borasida muayyan qiyinchiliklarga duch kelayotgani kuzatilmoqda. Bu o'rinda gazetalari oldida o'quvchilarning tez, ishonchli va haqqoniy axborot olish borasidagi ehtiyojlarini qondirish, ular bilan samarali muloqot o'rnatish uchun til imkoniyatlaridan unumli foydalanish, milliy til xususiyatlarini saqlab qolgan holda jahon tilshunosligining ilg'or an'ana va yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish kabi muhim vazifalar turibdi.

Dunyo tilshunosligida gazeta tili va uslubi masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlarda gazetalarning o'ziga xos leksik-semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlari, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishdagi ahamiyati hamda jamiyatdagi mavqeni mustahkamlashdagi o'rni kabi jihatlar atroflicha o'rganilmoqda. Xususan, gazeta tilining lug'at boyligi, undagi yangi so'z va iboralarning paydo bo'lish omillari, gazetalarning tildan foydalanish mahorati, ularning milliy til me'yorlariga rioya qilish darajasi kabi masalalar tadqiqotchilar diqqatini tortmoqda. Shuningdek, gazeta tilining imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish, milliy va jahon tilshunosligining ilg'or yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida gazeta matnlarining lisoniy va uslubiy jihatlarini tadqiq qilish masalalari kun tartibidagi dolzarb mavzulardan sanaladi. Mustaqillik yillarida ushbu yo'nalishda qator fundamental va amaliy tadqiqotlar hayotga tatbiq etilganiga qaramasdan, gazeta matnlarida modallik kategoriyasining aktuallashuvi muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlanmagan va bu muammo lingvistik nuqtayi nazardan hozirgacha mukammal o'rganilmagan. Shuningdek, gazeta matnlarida modallikni ifodalash mexanizmlari, pragmatik va stilistik xususiyatlari hamda kommunikativ-funksional vazifalarini tadqiq etish ham bugungi o'zbek tilshunosligida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, modallikni kognitiv, pragmatik va diskursiv paradigmalari doirasida atroflicha tahlil qilish va bu borada jahon tilshunosligida erishilgan so'nggi yutuqlarni o'zbek tiliga tatbiq etish masalasi bugungi o'zbek tilshunosligi oldidagi dolzarb va o'rganilishi zarur bo'lgan vazifalardandir. Zero, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning davlat dasturidagi ilmiy tadqiqot ishlarini rag'batlantirish, tilshunoslik va tarjimashunoslik uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishi borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan

bo‘lib, ushbu yo‘nalishda chuqur va yangicha izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda¹.

O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi qonuni, mazkur hujjatdagi vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentyabrdagi 311-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Modallik bo‘yicha jahon tilshunosligida juda ko‘plab fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, modallikning falsafiy va mantiqiy asoslari, lisoniy ifoda vositalari, formal semantikasi, grammatikalashuvi masalalari, kognitiv va pragmatik jihatlari J.Layons, F.Palmer, J.Kouts, P.Portner, A.Kratser, A.Papafragu, J.Baybi, L.Xoy, R.Perkins, R.Xaddlston, G.Pullum, Y.Nitta, H.Nakau, N.Arutyunova, V.Vinogradov² lar tomonidan tadqiq etilgan.

¹ Мирзиёев Ш. М. // “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони /Халқ сўзи. №28 (6722). 8 феврал, 2017.

² Lyons J. Semantics. Vol. I, II. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 388 p.; Palmer F.R. Mood and modality. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 236 p.; Coates J. The semantics of the modal auxiliaries. – London: Croom Helm, 1983. – 259 p.; Portner P. Modality. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 288 p.; Kratzer A. Modality // von Stechow A., Wunderlich D. (eds). Semantics: An International Handbook of Contemporary Research. – Berlin: de Gruyter, 1991. – P. 639-650.; Papafragou A. Modality: Issues in the Semantics-Pragmatics Interface. – Amsterdam: Elsevier, 2000. – 220 p.; Bybee J., Perkins R., Pagliuca W. The Evolution of Grammar: Tense, Aspect, and Modality in Languages of the World. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. – P. 384.; Hoyer L. Adverbs and Modality in English. – Longman, 1997. – 324 p.; Perkins M.R. Modal Expressions in English. – Norwood, NJ: Ablex Publishing Corporation, 1983. – 186 p.; Huddleston R., Pullum G.K. The Cambridge grammar of the English language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 1842 p.; Nitta Y. Nihongo no modariti to ninshō. – Tokyo: Hitsuji Shobo, 1991. – 287 p.; Nakau M. Ninchi imiron no genri. – Tokyo: Taishukan, 1994. – 325 p.; Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений: Оценка, событие, факт. – Москва: Наука, 1988. – 338 с.; Виноградов В. В. О категории модальности и модальных словах в русском языке // Исследования по русской грамматике. – 1975. – № 2. – С. 53-87;

O'zbek tilshunosligida ham modallik kategoriyasining turli xususiyatlari o'rganilgan. Xususan, G.Zikrillayev modallik va darak mayli shakllarini³, U.Lafasov dialogik nutqda subyektiv modallikni⁴, R.Sibigatov gap tarkibidagi modal komponentni⁵, S. Boymirzayeva matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalarni⁶, J.Yoqubov modallikning mantiqiy va lisoniy asoslarini⁷, S. Saidov nemis va o'zbek tillarida modallikning ifoda vositalarini grammatik sathda namoyon bo'lishini⁸, M.Jo'rayeva esa modallikning fransuz va o'zbek ertaklaridagi lingvokognitiv hamda milliy-madaniy xususiyatlarini⁹, Z.Yigitaliyeva modallik va modus hodisalarining mohiyati, lisoniy ifoda vositalarini¹⁰, V.Xolmatova ingliz tili materiallarida modal birliklarning gapning kommunikativ-pragmatik maqsadini shakllantirishdagi o'rnini tadqiq etganlar¹¹.

Pulitsistik-gazeta tili xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar ham jahon tilshunosligida ko'plab uchraydi. Xususan, D.Ri, P.Sharodo, P.Burd'e, N.Feyrkló, T.Dobrosklonskaya, M.Shudson, P.Beyker, S.Elles, R.Grinzleyd, P.Meyer, H.Lyuger, A. Bell, V. Kostomarov, G.Solganik, M.Lukanina, S.Vinogradov, G.Bobrovskaya¹² kabi olimlar tomonidan gazeta matnlari tili, uslubi, diskurs xususiyatlari, media nutqining o'ziga xos jihatlari, gazeta matni stilistikasi va uning pragmatik mazmuni atroflicha tadqiq etilgan.

³ Зикриллаев Г.Н. Модальности и система форм изъявительного наклонения. АКД. Т.: 1978. – 21 с.

⁴ Лафасов У.П. Диалогик нуткда субъектив модалликнинг ифодаланиши. Номзод. Дисс. Т., 1996, – 145 б

⁵ Сибигатов Р.Г. Модальный конституент предложения // Современная тюркология. – Ленинград: Наука, 1965. – 172 с.

⁶ Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 26 б.

⁷ Ёқубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2005. – 308 б

⁸ Саидов С. С. Немис тили грамматикаси машқларда: Чет тиллар ун-т, ин-т ва фак., мактаб, лицей, коллеж, хунарбилим юртлари ўқувчилари, нохорижий фак. талабалари учун. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2003. – 400 б.

⁹ Жўраева М. Француз ва ўзбек эртақларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий маданий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2017. – Б. 233.

¹⁰ Йигиталиева З.М. Тилнинг модал структураси ва модуснинг ифодаланиши: (PhD) дис. автореф. – Фарғона, 2021. – 53 б.

¹¹ Xolmatova, V.N. Modal birliklarning gap pragmatik mazmunini ifodalash imkoniyatlari (ingliz tili materiallari asosida): (PhD) dis. – Qarshi, 2020. – 151 b.

¹² Reah D. The language of newspapers. 2nd ed. – London: Routledge, 2002. – 126 p.; Charaudeau P. Le discours d'information médiatique: La construction du miroir social. – Paris: Nathan, 1997. – 286 p.; Bourdieu P. Sur la télévision. – Paris: Liber-Raisons d'agir, 1996. – 95 p.; Fairclough N. Media Discourse. – London: Edward Arnold, 1995. – 214 p.; Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ: современная английская медиаречь: учеб. пособие. – М.: Флинта: Наука, 2008. – 263 с.; Schudson M. The Sociology of News. – New York: Norton, 2003. – 261 p.; Baker P., Ellece S. Key terms in discourse analysis. – London: Continuum, 2011. – 240 p.; Greenslade R. Press Gang: How Newspapers Make Profits From Propaganda. – London: Pan Books, 2004. – 800 p.; Meyer P. The Vanishing Newspaper: Saving Journalism in the Information Age. – Columbia: University of Missouri Press, 2004. – 269 p.; Lüger H.H. Pressesprache. – Tübingen: Niemeyer, 1983. – 112 p.; Bell A. The language of news media. – Oxford: Blackwell, 1991. – 277 p.; Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. – Москва: МГУ, 1971. – 267 с.; Солганик Г.Я. Лексика газеты: функциональный аспект: учебное пособие для вузов по специальности “Журналистика”. – Москва: Высшая школа, 1981. – 112 с.; Луканина М.В. Газетный текст через призму теории коммуникаций // Вестник Московского университета. Серия 19. – 2003. – № 2. – С. 123-133.; Виноградов В. В. О категории модальности и модальных словах в русском языке // Исследования по русской грамматике. – 1975. – № 2. – С. 53-87.; Бобровская Г.В. Когнитивно-элокутивный потенциал газетного дискурса: монография. – Волгоград: Изд-во ВГПУ «Перемена», 2011. – 319 с.

Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida gazeta uslubi va lingvistik xususiyatlari keng tadqiq etilgan. T.Qurbonov publitsistik uslubning o‘ziga xos xususiyatlari, janrlari, gazeta tilining publitsistik uslubdagi o‘rni va bosh maqola materiallarini tadqiq etgan¹³. B.Turdialiyev 1905-1917 yillar vaqtli matbuoti materiallarida gazeta tilining morfologik xususiyatlarini o‘rgangan¹⁴. M.Rahmonov “Turkiston viloyatining gazetasi”ni sintaktik jihatdan tahlil qilib, gazeta materiallarining aksariyati rus tilidan tarjima qilinganligi sababli, ularning sintaksisida rus tili ta’siridagi ozgarishlar mavjudligi hamda gazeta tilida og‘zaki nutqqa xos belgilarning keng qo‘llanganligini tadqiq etgan¹⁵. S.Muhamedov gazeta publitsistika janrlarini ajratib ko‘rsatgan¹⁶. O.Tog‘ayev xat, ocherk, felyetonni badiiy publitsistika janrlari sifatida baholagan va badiiy-publitsistik janrlar bilan bir qatorda ijtimoiy-analitik yoki informatsion-analitik publitsistika janrlarini ham tadqiq etgan¹⁷.

Tahlilga tortilgan tadqiqotlardan farqli o‘laroq, mazkur ishda ingliz va o‘zbek gazeta matnlaridagi modallik vositalarining semantik-funksional xususiyatlari tizimlashtirilgan bo‘lib, bu masalaning bunday keng qamrovda, chog‘ishtirma aspektda tadqiqi ilk bor amalga oshirilmoqda va shu jihatdan mazkur ish o‘zining dolzarbligi va ilmiy yangiligi bilan ajralib turadi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertasiya mavzusi Namangan davlat chet tillari instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining “Xorij adabiyotini o‘rganish va tarjimashunoslik masalalari hamda chet til ta’limi muammolari” mavzusidagi kompleks ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek gazetalarida modallik kategoriyasining voqelanish xususiyatlari, uning lisoniy mohiyati va funksional-semantik jihatlarini qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

modallik kategoriyasining mohiyati, turlari va lisoniy xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish;

publitsistik nutq, xususan, gazeta matnlarining o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarini aniqlash;

publitsistik matnlarda modallikning matn yaratishdagi o‘rni va gazeta sarlavhalarining modallik xususiyatlarini tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida subyektiv modallikni ifodalovchi vositalarni aniqlash;

¹³ Qurbonov T.I. Публицистик услуб масаласига доир. Нутқ маданияти масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1980. – Б. 77.

¹⁴ Турдиалиев Б. Морфологические особенности языка периодической печати 1905-1917гг. Автореф. дис. канд. филол.наук. -Ташкент, 1969. - С. 17.

¹⁵ Рахманов М. Синтаксические особенности языка газеты «Туркестон вилоятининг газети»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – 24 с.

¹⁶ Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. – Ташкент: Фан, 1986. – 160 б.

¹⁷ Тоғаев О. Публицистика жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 180 б.

ingliz va o'zbek gazetalarida "ehtimollik", "imkoniyat", "qobiliyat", "zaruriyat" va "majburiyat" ma'nolarini ifodalovchi modal birliklarning qo'llanilishi va ularning semantik xususiyatlarini korpusga asoslangan holda o'rganish;

ingliz va o'zbek tilidagi gazeta matnlarida modal birliklarning semantik-funksional xususiyatlarini qiyosiy-chog'ishtirma aspektda tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli tomonlari bilan bir qatorda, uslubiy va pragmatik jihatlarini yoritish, ularning muallif nutqidagi vazifalarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi gazeta matnlari tanlangan. Ingliz tili uchun COCA korpusining "Newspapers" bo'limi materiallari, o'zbek tili uchun esa respublikamizning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi gazetolari, jumladan respublika, viloyat, shahar-tuman va soha gazetalarining 2024-yilgi sonlari olindi.

Tadqiqotning pedmeti ingliz va o'zbek publitsistik matnlarida modallik vositalarining semantik-funksional xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda korpus tahlili, qiyosiy-chog'ishtirma, kontekstual tahlil, statistik tahlil va funksional-semantik tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"ehtimollik", "imkoniyat", "qobiliyat", "zaruriyat" va "majburiyat" mazmunini ifodalovchi modal birliklarning muallif kommunikativ maqsadini ifodalash, o'quvchiga ta'sir o'tkazish, ishontirish, dalillarni asoslash, baholash, muayyan xatti-harakatlarga undash kabi pragmatik vazifalari yoritib berilgan;

modal birliklarning gazeta janrlari va mavzulariga ko'ra farqli qo'llanilishi masalasi atroflicha yoritilib, turli janrdagi matnlarda, xususan, yangiliklar, tahliliy maqolalar, intervyular, reportajlarda modallikning o'ziga xos ifoda vositalari va usullari borligi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy mavzulardagi matnlarda modallikning turlicha namoyon bo'lishi, ularning maqsadi, muallif intensiyasi bilan bog'liqligi ochib berilgan;

modal birliklarning gazeta diskursida axborot berish, ishontirish, baholash, undash, buyurish, maslahat berish, taxmin va bashorat qilish kabi bajaradigan kommunikativ vazifalari hamda ularning publitsistik matnlar ta'sirchanligini oshirishdagi roli aniqlangan;

COCA korpusi va maxsus yaratilgan o'zbek gazetolari korpusi yordamida modal birliklarning qo'llanilish chastotasi, modal birliklarning matnning uslubiy yo'nalishiga ko'ra tanlanishi, matn mazmuniga ta'siri, gazeta salavhalarida namoyon bo'lishi singari kontekstual xususiyatlari va muallif munosabatini ifodalashdagi roli, matn mazmunini kuchaytirish yoki yumshatishdagi vazifasi, axborot uzatishdagi kommunikativ funksiyasi, matnning ta'sirchanligini oshirishdagi ahamiyati, gazeta uslubiga xos bo'lgan subyektivlikni ifodalashdagi o'rni singari funksional vazifalari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

olingan natijalar asosida ingliz va o'zbek tillarida modallikni ifodalovchi birliklarning qo'llanilish xususiyatlarini aks ettiruvchi uslubiy qo'llanma tayyorlash mumkinligi va ushbu qo'llanma tarjimonlar, tilshunoslar va chet tili fani

o'qituvchilar uchun modal birliklarning semantik-funksional aspektlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam berishi asoslangan;

gazeta matnlarida modallik vositalarining ingliz va o'zbek tillaridagi qo'llanilishi bo'yicha olingan xulosalar jurnalistika sohasida tahsil olayotgan bo'lajak jurnalistlarga modallik orqali o'z maqsadlarini aniq va ta'sirchan ifoda etish, o'quvchiga samarali ta'sir ko'rsatish yo'llarini o'rgatishda qo'l kelishi aniqlangan;

o'zbek va ingliz tillaridagi modallik vositalarining qiyosiy tahlili asosida yaratilgan mashq va topshiriqlar tizimi filologiya yo'nalishidagi talabalarga modal birliklarning o'ziga xos semantik va pragmatik jihatlarini o'rgatish, tillararo farqlarni anglash va ulardan amaliy foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi ko'rsatib berilgan;

Antconc dasturida o'zbek gazetalaridan yaratilgan korpus bazasi tilshunoslikning turli sohalari bilan bir qatorda jurnalistika, matnshunoslik, diskurs tahlili kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar uchun material va manba sifatida xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida zamonaviy tilshunoslik nazariyalariga mos keladigan yondashuvlar qo'llanilganligi, qo'yilgan muammolar aniq va dolzarb ekanligi, qiyosiy, lingvostatistik, kontekstual tahlil kabi zamonaviy usullar qo'llanilganligi, chiqarilgan xulosalar ilmiy jihatdan asosli va qat'iy tarzda keng qamrovli tahlillar asosida shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarda modallik vositalarining semantik-funksional xususiyatlarini chuqur o'rganish, ikki til tipologiyasini qiyosiy tahlil qilish, "Matn tilshunosligi", "Tilshunoslik nazariyasi pragmalingvistika", "Kommunikativ tilshunoslik" fanlari doirasida modallik kategoriyasining nazariy asoslarini rivojlantirish, modallikni ifodalovchi lingvistik vositalarning tavsifi va tasnifini ishlab chiqish, gazeta matnlarida modallik semalarining voqelanishini batafsil tahlil qilish orqali muloqot samarasini ta'minlovchi lisoniy va nolisoniy omillarning harakat mexanizmlarini tushunishga yordam berishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati publitsistik matnlar tahlili va tarjimasida modallik vositalarini to'g'ri tushunish va qo'llash uchun asos bo'lishi, tilshunoslik hamda jurnalistika yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida xizmat qilishi, lug'atlar tuzishda modallik birliklarini to'g'ri tavsiflab berish uchun manba bo'lishi, kompyuter lingvistikasi sohasida matnlarni tahlil qilish va generatsiya qilish algoritmlarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriylanishi. Ingliz va o'zbek publitsistik matnlarida modallik vositalarining semantik-funksional xususiyatlarining tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o'zbek gazetalarida qo'llanilgan modal birliklarning semantik-funksional xususiyatlari korpus lingvistikasi usullari asosida qiyosiy o'rganilishi, COCA korpusi va maxsus yaratilgan o'zbek gazetalar korpusi yordamida modal birliklarning qo'llanilish chastotasi, kontekstual xususiyatlari va funksional ahamiyatining keng qamrovda tahlil qilinishi, modal birliklarning gazeta diskursida

bajaradigan kommunikativ-pragmatik vazifalari va jurnalistik matnlar ta'sirchanligini oshirishdagi roli, ularning axborot berish, ishontirish, baholash va boshqa funksiyalari haqidagi taklif va tavsiyalar, xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PF-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" nomli loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 15-oktabrdagi 04/1-2866-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek publitsistik diskursida modallik semalarining namoyon bo'lishiga doir ma'lumot hamda ilmiy tahlillar takomillashgan;

"ehtimollik", "imkoniyat", "qobiliyat", "zaruriyat" va "majburiyat" mazmunini ifodalovchi modal birliklarning gazeta diskursida axborot berish, ishontirish, baholash, undash, buyurish, maslahat berish, taxmin va bashorat qilish kabi bajaradigan kommunikativ vazifalari hamda ularning publitsistik matnlar ta'sirchanligini oshirishdagi roli va funksiyalari haqidagi taklif va tavsiyalar, xulosalardan AQShning O'zbekistondagi elchixonasining Alumni Outreach Grants Program dasturi doirasida 2020-2021 yillarda Namangan davlat universitetida bajarilgan S-UZ800-20-IN-0106 raqamli "Virtual Workshop on Collaborative Action Research for English Teachers" amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Namangan davlat universitetining 2024-yil 4-dekabrda 1697/04-sonli ma'lumotnomasi). Dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar natijasida amaliy loyihadagi zaruriy ma'lumotlar boyitilgan.

"ehtimollik", "imkoniyat", "qobiliyat", "zaruriyat" va "majburiyat" mazmunini ifodalovchi modal birliklarning muallif kommunikativ maqsadini ifodalash, o'quvchiga ta'sir o'tkazish, ishontirish, dalillarni asoslash, baholash, muayyan xatti-harakatlarga undash kabi pragmatik vazifalari, turli janrdagi matnlarda, xususan, yangiliklar, tahliliy maqolalar, intervyular, reportajlarda modallikning o'ziga xos ifoda vositalari va usullari borligi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy mavzulardagi matnlarda modallikning turlicha namoyon bo'lishi, ularning maqsadi, muallif intensiyasi bilan bog'liqligi yuzasidan chiqarilgan xulosalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yilda e'fira uzatilgan "Ta'lim va adabiyot", "Adabiy jarayon" dasturlarida, shuningdek, "Jahon adabiyoti" radioeshittirishlarida ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 14-oktabrdagi 04-36-1115-son ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuv va radiodasturlarni publitsistik matnlarda modallik vositalarining semantik-funksional xususiyatlariga doir ma'lumotlar, ilmiy dalillarga boyligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 7 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop ettirilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek tadqiqot ishi doirasida 1 ta monografiya ham chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 165 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Modallik kategoriyasi va publitsistik-gazeta uslubining nazariy masalalari”** nomli 1-bobida modallik kategoriyasining talqini, tadqiqi, tipologiyasi, lisoniy mohiyati hamda publitsistik-gazeta nutqining tilshunoslikdagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlari kabi nazariy masalalari yoritilgan.

Bobning **“Modallik kategoriyasining talqini va tadqiqi”** nomli 1-bo'limida modallik tushunchasining kelib chiqishi, uning falsafa, mantiq va tilshunoslikdagi talqinlari, turli olimlarning modallik haqidagi qarashlari hamda modallikning lingvistik xususiyatlari tahlili berilgan.

“Modal” termini dastlab mantiq ilmida qo'llanilgan bo'lib, uning kelib chiqishi “fransuz tilidagi “modal” va o'rta asr lotin tilidagi “modalis” so'zlariga borib taqaladi. “Modal” so'zi “tarz” yoki “uslub”ga oid degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, lotin tilidagi “modus” so'zi bir qator ma'nolarni, jumladan, “o'lchov, hajm, miqdor; to'g'ri o'lchov, ritm, qo'shiq; yo'l, usul, moda, stil” kabi tushunchalarni ifodalaydi¹⁸”.

Modallik kategoriyasini o'rganish tarixi uzoq o'tmishga, xususan, Aristotel davriga borib taqaladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, “modallik” tushunchasini fanga birinchi bo'lib Aristotel olib kirgan¹⁹. U modallik kategoriyasini tildagi ifoda mohiyatidan kelib chiqib, uni “obyektiv borliqdagi harakatning amalga oshishi yoki oshmasligi mumkinligi (ehtimolligi)” kabi ikki turga ajratadi. U modallik haqida shunday fikr bildiradi: “Bu eng oliy mantiqiy tushunchalar bo'lib, obyektiv borliqning asosiy, muhim xususiyatlari kategoriyalarda aks etadi va ular asosida boshqa tushunchalar hosil bo'ladi. Ular moddiy dunyo (obyektiv borliq) bilan bog'langanligi uchun kategoriyalar tabiat hodisalari orasidagi bog'lanish va ularning munosabatini ifodalab, gaplarning asl mohiyatini anglatadi”²⁰.

O'rta asrlarda g'arbda Aristotelning modallik nazariyalari ta'sirida “modistlar” deb atalgan ta'lim maktabi shakllandi. Ushbu maktab vakillari “diktum” va “modus” tushunchalari orasidagi farqlarni aniqlashda muhim ishlarni amalga oshirdilar. Ular “diktum”ni obyektiv mazmun, “modus”ni esa subyektiv baholash komponenti sifatida talqin etdilar. Keyinchalik Sh.Balli modistlarning g'oyalarini yanada rivojlantirib, bayonot mazmunining ikkita asosiy tarkibiy qismini ajratib ko'rsatdi:

¹⁸ Oxford Latin dictionary / Ed. by P.G. Glare. – Oxford: Oxford University Press, USA, 1982. – P. 1124.

¹⁹ Sharples B. Mostly Aristotle // Phronesis. – 1997. – Vol. 42, No. 2. – P. 237.

²⁰ Аристотель. Категории. С приложением «Введения», Порфирия к Категориям» Аристотеля. — М., 1939. С. 25–30.

“dictum (obyektiv-axborot komponenti) va modus (subyektiv-emotsional komponent)²¹.”

O.Axmanovaning ta’rifiga ko’ra, modallik so’zlovchining gap mazmuniga bo’lgan munosabatini hamda nutq mazmuni va voqelik o’rtasidagi munosabatni o’z ichiga olgan konseptual kategoriya hisoblanadi²².

N.Turniyozovning fikricha, “gap unsurlarining modallik belgisi bir tomondan so’zlovchining ruhiyati bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchi tomondan ular anglatadigan ma’nolar bilan ham uzviy aloqadordir²³”.

V.Admoniy esa modallikni so’zlovchining voqelikka munosabati sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko’ra, “modallik so’zlovchining voqelikka nisbatan shaxsiy pozitsiyasini, his-tuyg’ularini va qarashlarini aks ettiradi. Shu ma’noda, u ham modallikning subyektiv xarakterini ta’kidlaydi²⁴.”

M.Xollidey modallik tushunchasi mantiqshunoslikdan tilshunoslikka o’tkazilganini ta’kidlaydi. Mantiqda modallik fikrlarning haqiqatga muvofiqligi, zaruriyligi va ehtimolliligini bildirsa, tilshunoslikda ham shu tamoyillar amal qiladi. Xollideyning qayd etishicha, modallik nutqning aniq va ma’lum bir ma’noga ega bo’lishini ta’minlaydi. Demak, modallik tilning semantik va kommunikativ jihatlarida muhim rol o’ynaydi²⁵.

Mavjud ta’riflarni umumlashtirgan holda, modallikning asosiy xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin.

1. Modallik so’zlovchining voqelikka munosabatini ifodalaydi va nutq jarayonida so’zlovchi o’z fikrini bildirish bilan birga, unga nisbatan shaxsiy pozitsiyasini ham namoyon etadi.

2. Modallik so’zlovchining gap mazmuniga bo’lgan munosabatini aks ettiradi va gap mazmunining haqiqiyliigi, zaruriyligi, ehtimolliligi kabi jihatlarni ifodalaydi.

3. Modallik so’zlovchining his-tuyg’ulari va qarashlarini aks ettiradi, ya’ni nutqda so’zlovchining emotsional holati, subyektiv baholari va dunyoqarashi modallik vositalari orqali namoyon bo’ladi.

4. Modallik kommunikativ-pragmatik vazifa bajarib, muloqot jarayonini boshqaradi, nutqning ta’sirchanligini oshiradi va tinglovchiga ma’lum bir munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

J.Yoqubov modallik kategoriyasini mantiq va tilshunoslik nuqtayi nazaridan qiyosiy o’rgangan olimlardan biri hisoblanadi. Uning qarashlariga ko’ra, “modallikni bir tomondan mantiq ilmi bilan bog’liq holda, ikkinchi tomondan esa tilshunoslik doirasida lisoniy birliklar orqali tadqiq etish juda muhim ahamiyatga ega. Olim mantiq va tilshunoslikning hozirgi aloqalari, ushbu ikki sohaning nazariy

²¹ Балли, Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка [Текст] / Пер. с 3-го фр. изд. Е. В. и Т. В. Вентцель; Ред., вступ. статья [с. 3-19] и примеч. Р. А. Будагова. - М.: Изд-во иностр. лит., 1955. - С. 416.

²² Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. 2-е изд. - Москва: Советская энциклопедия, 1969. - С. 237-238.

²³ Турниёзов Н. Нутқ ва унинг эгоцентрик характери хусусида баъзи мулоҳазалар // Тил ва нутқ систем-сатҳ талқинида. - Самарқанд: ДҶТИ, 2005. - Б. 21-22.

²⁴ Адмони В.Г. Введение в синтаксис современного немецкого языка. - Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1955. - С. 256.

²⁵ Halliday M.A.K. Functional diversity in language as seen from a consideration of modality and mood in English // Foundations of Language. - 1970. - Vol. 6, No. 3. - P. 322-361.

tushunchalari o'rtasidagi moslikning turli tillardagi rivojlanishida katta rol o'ynashini alohida ta'kidlaydi²⁶.

M.Jo'rayeva fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganib, uning turli lisoniy vositalar orqali ifodalanishi, freymlar doirasida tashkil topishi hamda modus va diktum bilan aloqadorligini ochib bergan²⁷. S.Boymirzayevaning fikriga ko'ra, modallik mazmuni miqyosi va bu miqyosni ta'minlaydigan ifoda vositalarining o'zaro birikishi matn presuppozitsiyasi ta'sirida aniqlanadi. Presuppozitsiya deganda, so'zlovchining voqelik hodisalari haqidagi bilimlari, ularning ushbu hodisalar to'g'risidagi axborotga ega bo'lish darajasi tushuniladi²⁸.

Bobning **“Modallikning tipologik va konseptual mohiyatiga doir qarashlar”** nomli 2-bo'limida modallik kategoriyasining turli olimlar tomonidan tasniflanishi, uning obyektiv va subyektiv turlari, deontik, epistemik, aletik va dinamik modallik ko'rinishlari, shuningdek modallikning semantik xususiyatlari va lisoniy ifodalanish vositalarining tahlili berilgan, umumlashtirilgan.

Modallik tushunchasining umumiy ta'rifi va tasnifiga oid jahon tilshunosligidagi turli qarashlarni tahlil qilganda, bu boradagi yondashuvlar o'rtasida ma'lum bir umumiylik mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, ko'pchilik olimlar modallikni gapda ifodalangan propozitsional mazmun bilan uzviy aloqador bo'lgan grammatik kategoriya sifatida e'tirof etadilar.

V.Frouli modallik ma'nolarining tilning turli sathlariga oid vositalar – grammatik, leksik va prosodik birliklar orqali uzatilishini ta'kidlaydi²⁹. Grammatik vositalar, jumladan, modal fe'llar va boshqa grammatik shakllar modallikning keng tarqalgan va tizimli ifodalanish usullaridan biri sanaladi. Leksik vositalar, xususan, maxsus modal leksemalar va iboralar ham nutqda muayyan modal ma'nolarni uzatish vazifasini bajaradi. Prosodik vositalar, ya'ni ovoz toni, ohang, urg'u orqali turli modal ma'nolar, hatto darak gaplar ham buyruq, talab ma'nosini ifodalashi mumkin.

O.Yespersen german tillarida, xususan, ingliz va nemis tillarida modal fe'llarning modallikning yetakchi ifodalanish vositalaridan biri ekanligini qayd etadi. Boshqa tizimga mansub ba'zi tillarda, jumladan, turkiy va fin-ugor tillarida modal fe'llar uncha rivojlanmagani, ularda modallik ma'nolari boshqa vositalar – qo'shimchalar, yuklamalar, modal so'zlar yordamida ifodalanishi ta'kidlanadi³⁰.

V.Vinogradovning tasnifiga ko'ra, subyektiv modallik so'zlovchining voqelikka, propozitsional mazmun haqiqiyligiga nisbatan shaxsiy munosabatini aks ettirsa, obyektiv modallik propozitsional mazmunning voqelikka munosabatini belgilaydi. Subyektiv modallik ko'proq leksik va prosodik vositalar bilan bog'liq bo'lsa, obyektiv modallik esa grammatik vositalar, xususan, fe'l shakllari orqali

²⁶ Ёкубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантик ва тилда ифодаланишининг семантик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 62.

²⁷ Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртақларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий маданий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри дис. автореф. – Тошкент, 2017. – 87 б.

²⁸ Боймирзаева С.Ў. Матн модаллиги. – Т.: Фан, 2010. – Б. 26-27.

²⁹ Frawley W. Linguistic Semantics. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1992. – P. 384-426.

³⁰ Jespersen O. The Philosophy of Grammar. – London: George Allen & Unwin, 1924. – P. 313-321.

ifodalanadi³¹.

J.Koutzning fikricha, modallik vositalarini puxta bilish va ularni o‘rinli qo‘llay olish so‘zlovchiga o‘z fikrini aniq, ta’sirchan va ishonchli tarzda ifoda etish imkoniyatini yaratadi. Modallik vositalari yordamida adib o‘z munosabatini, his-tuyg‘ularini va qahramon ruhiyatidagi nozik qirralarni yorqin aks ettira olsa, jurnalist o‘z fikrini aniq va lo‘nda ifoda etib, o‘quvchilarni o‘z pozitsiyasining to‘g‘riligiga ishonтира oladi³².

F.Palmerning tasnifiga ko‘ra, modallik dinamik, deontik va epistemik turlarga bo‘linadi. Dinamik modallik subyektning biror harakatni bajarish imkoniyati yoki qobiliyatini bildiradi³³. J.Layonz modaliklarni epistemik va deontik turlarga ajratadi. Epistemik modallik subyektning propozitsional ma’noning haqiqiyligiga nisbatan ishonch darajasini bildiradi³⁴. Masalan, “Bu chinakam tug‘ma qobiliyatning belgisi bo‘lsa kerak (Darakchi. 2024-yil, 28-son)”. Deontik modallik esa subyektning propozitsional ma’noda ifodalangan harakatga nisbatan majburiyat yoki ruxsatni ifodalaydi. Masalan, “Uy sharoitida bemor sabzavotlardan yangi siqilgan tabiiy sharbatlar ichishi va parhez taomlar – bug‘da pishirilgan, yog‘siz ovqatlarga o‘tishi kerak. (Darakchi. 2024-yil, 28-son)”.

Z.Yigitaliyeva o‘z tadqiqot ishida modallik va modus hodisalarining mohiyatini atroflicha yoritib bergan. Uning fikriga ko‘ra, modallik va modus hodisalari relyatsion, semantik va vazifaviy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning muloqot jarayonidagi mazmuniy, funksional hamda pragmatik qamrovi keng bo‘lib, nutqda prosodik vositalar (intonatsiya, urg‘u, tembr), leksik vositalar (holat fe’llari, jargonlar, frazemalar), grammatik birliklar (modal so‘zlar, aktual bo‘laklar, ergash gapli qo‘shma gaplar) va ekstralingvistik vositalar (mimika, gest, fonatsion vositalar, yig‘i, kulgi, tabassum, sukut, xo‘rsinishlar) orqali namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, tadqiqotchi so‘zlovchining tashqi olam, nutq predmeti va kommunikativ vaziyatga nisbatan munosabatida shaxsning diniy e’tiqodi, u mansub bo‘lgan xalqning urf-odatları, mentaliteti kabi lingvokulturologik xususiyatlar aks etishini ham o‘rgangan.³⁵

Tilshunoslikda modallik kategoriyasini tavsiflash va tasniflashga doir turli yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, ko‘pchilik olimlar modallikning ikkita asosiy ko‘rinishi – obyektiv va subyektiv modallikni ajratib ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratadi. Obyektiv modallik gapning propozitsional mazmuni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, voqelikning real holatini aks ettiradi va asosan grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, “Hisobot davrida qo‘mita a’zolari tomonidan jami 16 ta senator so‘rovi yuborildi va ularning aksariyati o‘zining ijobiy yechimini topdi. (Xalq so‘zi. 2024-yil, 11-son)” gapida obyektiv modallik mavjud bo‘lib, unda tasvirlangan vaziyat real voqelikka mos keladi.

³¹ Виноградов В.В. О категориях модальности и модальных словах в русском языке // Исследования по русской грамматике: Избранные труды. – Москва: Наука, 1975. – С. 53-87.

³² Coates J. The Semantics of the Modal Auxiliaries. – London: Croom Helm, 1983. – P. 1-17.

³³ Palmer F.R. Mood and Modality. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 86-100.

³⁴ Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – P. 327-335.

³⁵ Йигиталиева З.М. Тилнинг модал структураси ва модуснинг ифодаланиши: (PhD) дис. автореф. – Фарғона, 2021. – 53 б.

Subyektiv modallik esa so‘zlovchining gapda ifodalangan fikrga nisbatan shaxsiy munosabatini, bahosini va hissiyotlarini aks ettiradi hamda leksik vositalar, sintaktik konstruksiyalar va prosodik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, “Qanchalik qiyin bo‘lmasin, lekin shu ishni bugun qilmasak, ertaga kech bo‘lishi mumkin. (Xalq so‘zi. 2024-yil, 11-son)” gapida subyektiv modallik ifodalangan bo‘lib, unda so‘zlovchining taxmini aks etgan.

Modal mantiqda modallik to‘rt asosiy turga bo‘linadi: deontik, epistemik, aletik va dinamik modallik. Ushbu tasnif modallikning turli ma’no qirralarini aniqlashga xizmat qiladi va tilshunoslikda ham keng qo‘llaniladi. Quyida har bir modallik turining o‘ziga xos xususiyatlarini A. Kratzerning qarashlariga tayangan holda tahlil qilamiz³⁶. Deontik modallik ijtimoiy-axloqiy me’yorlar, qonun-qoidalar bilan bog‘liq bo‘lib, kishilarning xatti-harakatlariga nisbatan majburiyat, ruxsat yoki taqiqni ifodalaydi. Epistemik modallik so‘zlovchining gapning propozitsional mazmuni, ya’ni uning haqiqatga mos kelish darajasiga bo‘lgan ishonchini ifodalaydi. Aletik modallik propozitsional mazmunning haqiqatga muvofiqligi, uning mantiqiy zaruriyati yoki imkoniyatini bildiradi. “2+2=4” kabi mantiqiy haqiqatlar aletik zaruriyatga misol bo‘la oladi. Aletik modallik asosan matematik va mantiqiy mulohazalarda qo‘llaniladi. Dinamik modallik esa subyektiv qobiliyati yoki imkoniyatlarini ifodalaydi.

Baybi, Perkins va Pagliukaning modal ma’nolarning evolyutsiyasi asosidagi tasnifi modallik hodisasiga yangicha yondashuvni taklif etadi. Ularning to‘rt guruhli modallik tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: agentga yo‘naltirilgan modallik, so‘zlovchiga yo‘naltirilgan modallik, epistemik modallik va tobe modallik.³⁷

Agentga yo‘naltirilgan modallik tushunchasi dinamik modallik bilan o‘xshash bo‘lib, ikkalasi ham subyektiv imkoniyatlari va sharoitlarini ifodalaydi. Biroq agentga yo‘naltirilgan modallik nafaqat subyektiv imkoniyatlarini (masalan, jismoniy qobiliyatini), balki tashqi omillar (ruxsat, majburiyat kabi) ta’sirini ham qamrab oladi.

So‘zlovchiga yo‘naltirilgan modallik tushunchasi so‘zlovchining propozitsional mazmun va uni bajarishga shaxsiy munosabatini (buyruq, talab va ko‘rsatma) bildiradi. Masalan, “Yozgi poyabzal ichida albatta, ortopedik qavat bo‘lish kerak. (Darakchi. 2024-yil, 24-son)” gapi so‘zlovchining ishtirokini va uning tinglovchiga ko‘rsatmasi yoki talabini ifodalashi mumkin. Biroq bu turdagi modallik faqat so‘zlovchining ishtirokini emas, balki uning his-tuyg‘ulari va istak-xohishlarini ham qamrab olsa, yanada mukammal bo‘lar edi.

Epistemik modallik alohida ajratilishi an’anaviy yondashuvga mos keladi. Ushbu modallik turi propozitsional mazmunning haqiqatga muvofiqligi va ro‘y berish ehtimolini bildiradi. Masalan, “Ba’zan aksincha, bu amaliyot natijasida chandiq paydo bo‘lishi mumkin. (Darakchi. 2024-yil, 28-son)” gapi epistemik modallikni ifodalaydi.

³⁶ Kratzer A. Modality // von Stechow A., Wunderlich D. (eds). *Semantics: An International Handbook of Contemporary Research*. – Berlin: de Gruyter, 1991. – P. 639-650.

³⁷ Bybee J., Perkins R., Pagliuca W. *The Evolution of Grammar: Tense, Aspect, and Modality in Languages of the World*. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. – P. 176-181.

Tobe modallik esa gapning bir qismi boshqa qismga tobelik hosil qilganda yuzaga chiqishini ko'rsatadi. Masalan, "I suggested that he should call you immediately" gapida "he should call" harakati "suggest" harakatiga tobelik hosil qilmoqda. Tobe modallik modal ma'nolarni emas, balki grammatik munosabatlarni ifodalaydi. Shu sababli uni alohida modallik turi sifatida qarash munozarali hisoblanadi.

Modallik til birliklarining semantik mazmunida muhim o'rin tutadi va ular nutqimizda keng qo'llaniladi. Ishonch, tasdiq, gumon, quvonch va afsuslanish kabi semalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ishonch semasi so'zlovchining gapda ifodalangan fikrga nisbatan to'liq ishonchini bildirsa, tasdiq semasi fikrning to'g'riligini ko'rsatadi. Gumon semasi so'zlovchining shubha yoki taxminini ifodalaydi, quvonch va afsuslanish semalari esa his-tuyg'ularni yetkazishga xizmat qiladi. Taajjublanish semasi so'zlovchining hayratlanish va ajablanish kabi hislarini ifodalasa, dalillash semasi fikrlarni misollar bilan asoslashni bildiradi.

Bobning **"Publitsistik matn va uning yaratilishida modallik kategoriyasining o'ri"** nomli 3-bo'limida publitsistik-gazeta tilining adabiy til tizimidagi o'ri, uning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari va modallikning publitsistik matn yaratilishidagi roli atroflicha tahlil qilingan.

Ommaviy axborot vositalari uslubi tahlili doirasida publitsistik uslub alohida ahamiyat kasb etadi. Publitsistik uslubni o'rganish nafaqat uning matn yaratishdagi vazifasi, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstdagi roli jihatidan ham muhimdir. Gazeta, jurnal, ocherk va felyetonlar orqali yetkaziladigan axborotlar jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida muloqotni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi kuchga aylanadi. Jamiyat hayotining turli sohalarini yorituvchi gazeta va jurnal maqolalari parlament muhokamalari, hukumat va siyosiy partiyalar tashabbuslari, ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar, fuqarolarning kundalik turmush tarzi haqida gazetxonlarni boxabar qiladi.

Platon va Aristotel davrlaridan boshlab publitsistika siyosat, axloq va notqlik san'ati bilan chambarchas bog'liq holda nafaqat muloqotda, balki jamiyatdagi demokratik jarayonlarni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynab kelgan³⁸. Zamonaviy publitsistikaga esa jamiyatni o'rganish va tahlil qilishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

"Publitsistik uslub" tushunchasi "ijtimoiy hayotni yorituvchi og'zaki va yozma ijod mahsulidir. Bu atamaning kelib chiqishi lotincha "publicus" (ommaviy) va inglizcha "publicist" (siyosat va davlat ishlari haqida yozuvchi jurnalist) so'zlari bilan bog'liq. Publitsistika jamiyatdagi dolzarb muammolarni aks ettirish, ularni baholash va umumlashtirish bilan shug'ullanuvchi alohida badiiy janr sifatida tan olingan"³⁹.

Gazetaning boshqa bosma nashrlardan farqli jihati shundaki, uni chop etish va tarqatish nisbatan qulay va oson. Bu esa axborotning keng ommaga tezkor yetib

³⁸ Kennedy G.A. Aristotle On Rhetoric: A Theory of Civic Discourse. 2nd ed. – New York: Oxford University Press, 2007. – P. 27.

³⁹ "Publicistic, adj." Oxford English Dictionary, Oxford University Press, Access date - [07.10.2024], https://www.oed.com/dictionary/publicistic_adj?tl=true

borishini ta'minlaydi. R.Grinzleyd ta'kidlaganidek, "gazetalar jamiyatning turli sohalarni, jumladan, siyosat, san'at, sport va mahalliy yangiliklarni qamrab oladi"⁴⁰.

"Gazeta" so'zi italyan tilidagi "gazetta" atamasidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab tangalarni anglatgan va etimologik jihatdan qadimgi grekcha "gaza" ("xazina") so'zi bilan bog'liq⁴¹. Gazetalarning ilk ko'rinishlari qadimgi Rim va Xitoyda paydo bo'lgan bo'lsa-da, ularning keng tarqalishi bosma dastgohning ixtiro qilinishi bilan chambarchas bog'liq.

Gazetalar jamiyatdagi muhim ijtimoiy-siyosiy institutlardan biri sifatida turli sohalarda, xususan, siyosat va iqtisodiyotda jamoatchilik fikrini shakllantirish va o'zgartirishda katta ahamiyatga ega. Ular axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatish orqali voqelikka o'z munosabatini bildiradi. I.Galperin gazeta uslubining bir qator o'ziga xos leksik xususiyatlarini sanab o'tgan: a) maxsus siyosiy va iqtisodiy atamalar; b) terminologik bo'lmagan siyosiy leksika; d) qisqartmalar; e) neologizmlar⁴².

O'zbek tilshunosligi va jurnalistikasida gazeta materiallarini janrlar bo'yicha tasniflashda hali yagona tizim ishlab chiqilmaganligi sababli bir qator muammolar mavjud. Gazeta janrlarini tasniflashda ularning o'ziga xos xususiyatlari, uslubi, tuzilishi, funksiyasi, maqsadi, hajmi va shakli kabi mezonlar inobatga olinishi lozim. Umumiy tarzda gazetadagi materiallarni xabar beruvchi, tahliliy, badiiy-publitsistik va reklama-axborot janrlari kabi guruhlarga ajratish mumkin. T.Qurbonov⁴³ va S.Muhamedov⁴⁴ kabi olimlar o'z tadqiqotlarida publitsistik uslubga xos janrlarning keng ro'yxatini taqdim etgan bo'lib, ular orasida reportaj, maqola, ocherk, felyeton, pamflet, intervyu kabi janrlar gazetaning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etishini ta'kidlaydilar.

Axborotning dolzarbligi zamonaviy jurnalistikaning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Fransuz tadqiqotchisi P.Sharodoning fikricha, yangiliklar shunchaki voqealarni aks ettirmaydi, balki ularni qayta yaratadi. Gazetalar xabarlarini tanlash va taqdim etish orqali o'quvchilarning voqelikni qanday idrok etishini belgilab beradi. Shu tarzda ular insonlarning dunyoqarashi va kundalik hayotiga ta'sir ko'rsatadi⁴⁵. T.Dobrosklonskaya ham "gazetalarning jamiyat kun tartibini belgilashdagi rolini ta'kidlaydi. Ular nafaqat dolzarb mavzularni tanlab oladi, balki o'quvchilarga qanday fikrlash va qaror qilishni ham ko'rsatib beradi"⁴⁶. Bunda til vositalaridan mohirona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Gazetalarning yana bir o'ziga xos jihati ularning doimiyligidir. F.Meyer gazetaning kuchini uning muntazam chop etilishida ko'radi. Bu ritmik yondashuv

⁴⁰ Greenslade R. Press Gang: How Newspapers Make Profits From Propaganda. – London: Pan Books, 2004. – P. 27.

⁴¹ Vikipediya. Gazeta termini. – URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gazeta>

⁴² Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – Москва: Высшая школа, 1981. – С. 272-274.

⁴³ Курбанов Т.И. Публицистик услуб масаласига доир нутқ маданияти масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1980. – Б. 77.

⁴⁴ Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. – Ташкент: Фан, 1986. – Б. 75.

⁴⁵ Charaudeau P. Le discours d'information médiatique: La construction du miroir social. – Paris: Nathan, 1997. – P. 142.

⁴⁶ Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ. – Москва: Флинта, 2008. – С. 8-11.

gazeta va o'quvchi o'rtasida barqaror aloqani ta'minlab, o'zaro ishonch va sadoqatni shakllantiradi⁴⁷. F.Esser esa gazetaning uzluksizligini uning hayotiyligi belgisi sifatida talqin qiladi. Har bir yangi son avvalgisini to'ldiradi, kengaytiradi va tuzatadi, shu tariqa o'quvchining voqelikni idrok etishi uzluksiz rivojlanib boradi⁴⁸.

Gazetalar keng auditoriyaga mo'ljallangan bo'lib, turli ijtimoiy, etnik va yosh guruhlariga xabar yetkazishni maqsad qiladi. R.Park gazetani jamiyatni yaxlit holda o'rganish va unga murojaat qilish vositasi deb hisoblaydi. U yuqori tabaqadan tortib quyi qatlamgacha, turli etnik guruhlarini bir xil axborot maydoni atrofida birlashtiradi⁴⁹.

Fransuz sotsiologi P.Burde esa gazetani ijtimoiy makonni demokratlashtirish quroli sifatida talqin etadi. Uning fikricha, gazeta har bir fuqaroga uning mavqei, kelib chiqishi yoki yoshidan qat'i nazar, axborot olish va o'z fikrini bildirish huquqini beradi. Shu ma'noda, gazeta ochiqlik va plyuralizmning ramzi hisoblanadi⁵⁰. N.Ferklaf gazetalar nafaqat voqelikning o'zini, balki uni tushunish usulini ham belgilashini ta'kidlaydi. Ular hokimiyat tili va uslubidan foydalangan holda "rasmiy obyektivlik" yaratadi. Garchi bu obyektiv ko'rinsa-da, aslida muayyan manfaatlarni ifodalovchi til hisoblanadi⁵¹. M.Lukanina esa gazetaning vazifasi faqat axborot yetkazishdan iborat emasligini qayd etadi. Uning fikricha, gazeta matnlarida axborot berish va mazmun yaratish vazifalari ishontirish hamda hissiy ta'sir ko'rsatish vazifalari bilan uyg'unlashadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni yanada chuqurroq mushohada yuritishga undaydi⁵².

Matbuot, xususan, gazetalar o'zining ko'p qirrali vazifalari bilan ommaviy axborot vositalari orasida alohida o'rin tutadi. A.Abdusaidov gazetaning asosiy vazifalarini axborot berish, targ'ibot va tashviqot qilish, tarbiyalash, tashkilotchilik, reklamachilik hamda ta'sirchanlik kabi jihatlarida ko'radi⁵³. Axborot berish vazifasi xalqaro va mahalliy miqyosdagi muhim voqea-hodisalarni tezkor va aniq yetkazishni nazarda tutsa, targ'ibot va tashviqot vazifalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, ommani ma'lum harakatlarga da'vat etishga qaratiladi. Gazetaning tarbiyaviy vazifasi xalq ongini shakllantirish, ijtimoiy o'zlikni anglash va jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashadi. Tashkilotchilik vazifasi orqali matbuot o'quvchilarni siyosiy va ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etishga chorlaydi. Reklamachilik vazifasi esa jamiyatdagi muhim o'zgarishlar, rivojlanishlar va yangiliklar haqida xabar berish orqali omma e'tiborini jalb qiladi. Gazetaning ta'sirchanligini oshirish uchun ommaboplik, obrazlilik, ekspressivlik, emotsionallik, aniqlik, ixchamlilik va munozaralilik kabi lingvistik xususiyatlarni hisobga olish zarur. Munozaralilik gazetaning ta'sirchanligini oshirishda katta ahamiyatga ega

⁴⁷ Meyer P. *The Vanishing Newspaper: Saving Journalism in the Information Age*. – Columbia: University of Missouri Press, 2004. – P. 38.

⁴⁸ Esser F. *Die Kräfte hinter den Schlagzeilen: Englischer und deutscher Journalismus im Vergleich*. – Freiburg: Verlag Karl Alber, 1998. – P. 319.

⁴⁹ Park R. *News as a Form of Knowledge: A Chapter in the Sociology of Knowledge* // *American Journal of Sociology*. – 1940. – Vol. 45, No. 5. – P. 669-686.

⁵⁰ Bourdieu P. *Sur la télévision*. – Paris: Liber-Raisons d'agir, 1996. – P. 18-20.

⁵¹ Fairclough N. *Media Discourse*. – London: Edward Arnold, 1995. – P. 214.

⁵² Луканина М.В. Газетный текст через призму теории коммуникаций // *Вестник Московского университета*. Серия 19. – 2003. – № 2. – С. 123-133.

⁵³ Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусияти: Филология фан. д-ри дис. – Тошкент, 2005. – Б. 41.

bo‘lib, gazeta sahifalarida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi mavjud muammolar va kamchiliklar haqida ochiq munozaralar uyushtiriladi.

Modallik kategoriyasi publitsistik matnlarning ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. U muallifning subyektiv munosabati, his-tuyg‘ulari va bahosini ifodalash, o‘quvchi bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Modal so‘zlar, fe‘llar va boshqa vositalar yordamida muallif o‘z fikrini ta’kidlaydi, ishonch bildiradi yoki shubha ostiga oladi. Shuningdek, ular matnni jonli va tabiiy qilishga yordam beradi. Muallif modal mazmunli gaplar orqali o‘quvchini mulohaza yuritishga, o‘z fikrini bildirishga undaydi. Modal vositalar muallifning hissiy munosabatini yanada kuchaytirish, bo‘rttirib ko‘rsatish imkonini beradi. Ular orqali muallif o‘z his-tuyg‘ularini, kechinmalarini ochiq-oydin ifoda etadi. Publitsistik matnlarda modallik implitsit va eksplitsit shaklda namoyon bo‘ladi. Implitsit modallik muallif pozitsiyasining yashirin ifodalanishini anglatadi, eksplitsit modallik esa munosabatning ochiq-oydin bildirilishini ko‘rsatadi.

Epistemiologik jihatdan, muallif “aniq”, “shubhasiz” kabi modal vositalar orqali bilimlarning ishonchliligi va asoslilikini ta’kidlaydi. “Mutaxassislar fikri”, “tadqiqotlar natijasi” singari iboralar bilimlarning manbasi va kelib chiqishini oydinlashtiradi. Aksiologik nuqtayi nazardan, “yaxshi”, “a’lo”, “g‘ayriinsoniy” kabi modal so‘zlar muallifning shaxsiy qadriyatlar tizimini aks ettirsa, “axloqsizlik”, “adolat tantanasi” singari iboralar jamiyatdagi me‘yorlarga munosabatini ko‘rsatadi. Modallik vositalarining persuaziv ta’siri muallifning fikrlarini qat’iy ifodalash, o‘quvchining hissiyotlariga ta’sir qilish va pozitsiyasini o‘zgartirishga qaratilgan. Emotsional-ekspressiv vositalar gazetxonni muayyan fikrni qabul qilishga undaydi. Argumentativ jihatdan, “tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki”, “statistik ma’lumotlar tasdiqlaydiki” kabi gaplar muallifning dalillarini asosli va haqiqiy ekanligini ta’kidlaydi. Opponentning qarashlarini tanqid qilish uchun ham modal vositalardan foydalaniladi.

Dissertatsiyaning 2-bobi **“Gazeta matnlarida modallik semalarining voqelanishi”**ga bag‘ishlangan. Bobning 1-bo‘limida **“Gazeta sarlavhalarining modallik xususiyatlari”** tahlil qilingan.

Modallik gazeta sarlavhalarining ajralmas xususiyati hisoblanadi va u turli grammatik hamda leksik vositalar orqali ifodalanadi. Xususan, modal fe‘llar (kerak, mumkin, lozim va boshqalar), modal so‘zlar va iboralar (ehtimol, shubhasiz, tabiiyki va hokazolar), shuningdek, hissiy-ekspressiv bo‘yoqdorlikka ega so‘zlar (ajoyib, dahshatli, g‘aroyib va boshqalar) shular jumlasidandir. Gazeta sarlavhalarida modallik turli omillar ta’sirida namoyon bo‘ladi. D.Dor ta’kidlaganidek, maqola janri sarlavhadagi modallik turini belgilashda muhim rol o‘ynaydi⁵⁴. Xabar mazmunidagi sarlavhalar odatda nisbatan neytral va xolis bo‘lib, ular asosan faktlarni qisqa va aniq yetkazishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, “Bog‘cha direktorlariga 30 foizli ustama beriladi” (Darakchi. 2024-yil, 28-son) yoki “Ajratilayotgan summa chakana emas” (Darakchi. 2024-yil, 28-son) kabi sarlavhalarda modallik minimal darajada namoyon bo‘lgan.

⁵⁴ Dor D. On newspaper headlines as relevance optimizers. – Journal of Pragmatics, 2003. – P. 695-721.

Gazeta sarlavhalari oddiy matndan farqli o'laroq, ancha murakkab funksiyalarni bajaradi. Ular nafaqat maqolaning mazmunini aks ettirish, balki muallif yoki nashrning voqea-hodisalarga nisbatan pozitsiyasini ham ifodalash vazifasini o'taydi. Bu vazifani bajarishda modallik muhim ahamiyat kasb etadi. Modallik matnda ochiq yoki yashirin tarzda namoyon bo'lishi mumkin. Gazeta sarlavhalarida modallik ko'pincha implitsit, ya'ni yashirin shaklda ifodalansa-da, o'quvchiga kuchli ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega.

Muallif fikrini ifodalashda ayrim sintaktik konstruksiyalar, xususan, ritorik so'roq gaplar va inversiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Mashaqqat, halovat va adolatning ahvoli nechuk?" (Istiqbol yo'li. 2024-yil, 2-son) kabi sarlavhada ritorik so'roq orqali muallif holatdan noroziligini bildirgan bo'lsa, ingliz tilidagi "Will justice ever prevail?" (Baltimore Sun. 2019-yil, COCA) sarlavhasi ham shunga o'xshash ma'no va modallikni o'zida mujassam etgan.

Ba'zan muallif implitsit modallikni ironiya va sarkazm kabi stilistik vositalar orqali ham ifodalashi mumkin. Bunda so'zlarning zohiriy ma'nosi bilan kontekstual ma'nosi o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Masalan, "The 'Effect' of Hotlines" (OregonLive.com. 2019-yil, COCA) sarlavhasidagi qo'shtirnoq orqali hosil bo'lgan kinoya ishonch telefonlari samaradorligiga shubha uyg'otadi. Gazeta sarlavhalarida modallik nafaqat implitsit, balki eksplitsit tarzda ham namoyon bo'ladi. Eksplitsit modallik muallifning fikr va his-tuyg'ularini bevosita til vositalari orqali ifodalash imkonini beradi. Bunday modallik turli leksik, grammatik va punktuatsion vositalar yordamida amalga oshiriladi. "Stop cuddling the koalas, tourists told" (The Times. 2024-yil, iyul) sarlavhasida buyruq mayli orqali eksplitsit modallik ma'nosi namoyon bo'lgan. "Have you used an energy broker in the last 10 years?" (The Times. 2024-yil, iyul) misolida esa so'roq gap orqali eksplitsit so'roq modalligi amalga oshirilgan. Shu tariqa, gazetxonga savol berish orqali muallif unga bevosita murojaat qiladi va muloqotga chorlaydi. "Abortion rights could be on Ariz., Neb. ballots" (The Boston Globe. 2024-yil, iyul) sarlavhasida "could" modal fe'li orqali muallif o'z taxminini bevosita ifoda etgan.

Turli janrdagi gazetalarda sarlavhalardagi modallik turli xil tarzda ifodalanadi. Rasmiy uslubdagi gazetalarda sarlavhalar odatda aniq va lo'nda bo'lib, ko'proq xabar mazmunidagi modallik ustuvorlik qiladi. Bunday holatlarda sarlavhalar tasvirlanayotgan voqelikning obyektiv va haqiqiy ekanligini ta'kidlaydi. Bunga "Media saw it - for years" (NY Daily News. 2024-yil, iyul), "Javanka plans Euro hotel" (New York Post. 2024-yil, iyul) kabi sarlavhalarni misol qilib keltirish mumkin.

Publitsistik janrdagi gazetalar sarlavhalarida boshqa modallik turlari, jumladan, buyruq-istak yoki emotsional-ekspressiv modallik ham namoyon bo'lishi mumkin. Maqolalarda muallif o'z fikr-mulohazalari orqali o'quvchiga ta'sir o'tkazishga, fikrlashga va muhokama yuritishga undaydi. Bunday holatlarda sarlavhalar ko'pincha ritorik savol, undov gaplar shaklida, emotsional-ekspressiv so'z va iboralar yordamida beriladi. Masalan, "Stay tuned as the election fallout unfolds!" (The Times. 2024-yil, iyul), "Weird but two!" (New York Post. 2024-yil, iyul) kabi sarlavhalar bunga misol bo'la oladi.

Ayrim hollarda muallif sarlavhada dalillar keltirish, faktlarga tayanish orqali o'quvchini ishontirishga intiladi. "2024-yilda 81 foizga yetkaziladi" (O'zbekiston ovozi. 2024-yil, 2-son) kabi sarlavhada aniq raqamlarning keltirilishi ishonchlilikni ta'minlaydi. Shuningdek, muallif sarlavhalarda voqea-hodisalarga nisbatan o'z bahosini ham ifodalashi mumkin. Buning uchun emotsional-ekspressiv leksika, baho mazmunini ifodalovchi so'zlar qo'llaniladi. Misol uchun, "Activist has the right medicine" (The Times. 2024-yil, iyul) sarlavhasidagi "right medicine" birikmasida ijobiy baho ifodalangan.

Gazeta sarlavhalaridagi modallik bir qator kontekstual omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni hisobga olgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq. Bunda sarlavhaning matn, vaziyat va madaniyat bilan aloqadorligi nazarda tutiladi. Sarlavhadagi modallik maqolaning mavzusi, janri va kommunikativ maqsadiga ko'ra farqlanadi. Masalan, siyosiy mavzudagi sarlavhalarda muallifning munosabatini ifodalovchi modallik qo'llanilsa, yangilik xabarlarida fakti qayd etish ustunlik qiladi. Tahliliy maqolalarda esa muallif pozitsiyasini ifodalovchi modallik vositalari xarakterli. Shuningdek, sarlavhadagi modallik ijtimoiy-siyosiy sharoit, davrning o'ziga xos xususiyatlari va kunning dolzarb voqea-hodisalariga ko'ra ham o'zgarishi mumkin.

Bobning 2-bo'limida **"Gazeta matnlarida "ehtimollik", "zaruriyat", "majburiyat", "imkoniyat" va "qobiliyat" modal semalarining ifodalanishi"** tahlil qilingan.

Epistemik modal birliklar gapning realligiga nisbatan so'zlovchining ishonch darajasini aks ettiradi va uning shaxsiy qarashlarini ifodalaydi. J.Layonz bu turdagi modal birliklarni "gapning haqiqatiga nisbatan so'zlovchining ishonch darajasini ifodalovchi vositalar" sifatida ta'riflab, ularni ehtimollik va aniqlik kabi ikkita asosiy guruhga ajratadi⁵⁵.

O'zbek tilida fikrning ehtimollik darajasini ifodalash uchun qo'llaniladigan modal birliklarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: ehtimollikni bildiruvchi modal so'zlar, modal fe'llar va modal konstruksiyalar.

Ehtimollik ma'nosini anglatuvchi modal so'zlar qatoriga "balki", "ehtimol", "chamasi", "shekilli" va "aftidan" singari leksik birliklarni kiritish mumkin. Mazkur modal so'zlar so'zlovchining ifodalanayotgan fikrga nisbatan qat'iy ishonchga ega emasligini, taxmin qilayotganini yoxud ehtimolini bildiradi. Masalan: "Balki, jadidchilar orzu qilgan jamiyatni qura olarmiz". (Toshkent oqshomi. 2024-yil, 2-son)

Ehtimollikni ifodalovchi modal birliklar muallifga o'z fikrlarini ehtiyotkorlik bilan bayon etish imkoniyatini beradi. Bunday modal birliklar ko'pincha noaniq yoki bahsli masalalar xususida fikr bildirilayotganda qo'llaniladi. Ular muallifning mulohazalarini yumshatib, o'quvchiga ham fikrlash va mulohaza yuritish uchun imkon beradi. Keltirilgan misolda ("Ehtimol, Sirdaryo havzasida suv resurslari hajmi kamayishi hisobga olinar". Zarafshon. 2024-yil, 2-son) muallif o'z fikrini qat'iy tarzda emas, balki ehtimoliy tarzda ifodalagan.

⁵⁵ Lyons J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 161-163.

Ehtimollikni bildiruvchi modal birliklar gazetalarda muallifning o'z pozitsiyasini himoya qilish va o'quvchilarning e'tirozlarining oldini olish uchun ham ishlatiladi. Keltirilgan misolda ("Tomorrow's new moon will provide the circumstances that could enable you to get seriously rich". The New York Post. 2019-yil, COCA) "could" modal fe'li yordamida muallif o'z fikrini ehtiyotkorlik bilan, ehtimollikni ta'kidlagan holda ifodalagan.

Ingliz tilida "may", "might", "could", "should" va "would" kabi modal fe'llar past darajadagi ehtimollikni ifodalash uchun qo'llaniladi. J.Koutz "should" va "would" modal fe'llarining past darajadagi ehtimollik ma'nosini ifodalashdagi rolini tadqiq etar ekan, ular boshqa ma'nolarni ham anglatishini aniqlaydi. Xususan, "should" aksariyat hollarda maslahat yoki tavsiya berish uchun qo'llanilsa, "would" ko'pincha o'tgan zamondagi takrorlanuvchi harakatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi⁵⁶.

D.Biber va boshqa tadqiqotchilar esa ushbu modal fe'llarning yozma va og'zaki nutqdagi qo'llanilish xususiyatlarini o'rganadilar. Ularning kuzatishlariga ko'ra, "may" va "might" ko'proq rasmiy yozma nutqda uchraydigan bo'lsa, "could", "should" va "would" ko'pincha norasmiy og'zaki muloqotda qo'llaniladi⁵⁷.

"Christian Braun may be more athletic, jumping-wise, but I would say Kevin McCullar has better ball skills than Christian had while he was here". (The New York Post. 2019-yil, COCA) misolida ham "may" modal fe'li ishlatilgan bo'lib, bu orqali muallif Christian Braunning sakrovchanlik bo'yicha Kevin McCullardan ustun ekanligi ehtimolini bildirgan. Biroq "may" fe'lining qo'llanilishi bu fikrning qat'iy emasligini, balki muallif taxmini ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, muallif "I would say" (Men aytgan bo'lardim) jumlasini ishlatish orqali o'z fikriga qat'iy ishonch bildirmayapti, aksincha, bu uning shaxsiy qarashi ekanligini ta'kidlayapti.

Ingliz tilida o'rta darajadagi ehtimollikni ifodalovchi modal birliklar orasida "will", "likely" va "probably" kabi modal so'zlar alohida o'rin tutadi. Xususan, R.Haddlston va G.Pallum "will" modal fe'lining kelajak zamondagi harakatlarni bashorat qilish uchun ishlatilishi bilan birga, hozirgi zamondagi umumiy holatlarni tavsiflash uchun ham qo'llanilishini qayd etishadi⁵⁸. Shuningdek, Biber va boshqalar "likely" ko'proq rasmiy va yozma nutqda, "probably" esa ko'pincha norasmiy va og'zaki nutqda qo'llanilishini aniqlashadi⁵⁹. "The new regulations will likely face legal challenges from industry groups" (The Washington Post. 2019-yil, COCA) kabi gapda esa muallif yangi qoidalarning sanoat guruhlari tomonidan huquqiy da'volarga uchrashi ehtimoliga ishora qilmoqda va bu ehtimolni "will likely" birikmasi orqali ifodalayapti.

Ingliz va o'zbek tillarida imkoniyat hamda qobiliyat mazmunini ifodalovchi turli modal vositalar mavjud bo'lib, ular voqea-hodisalarning sodir bo'lish ehtimoli

⁵⁶ Coates J. The semantics of the modal auxiliaries. – London: Croom Helm, 2015. – P. 205-221.

⁵⁷ Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman grammar of spoken and written English. – Harlow: Pearson Education Limited, 1999. – P. 449.

⁵⁸ Huddleston R., Pullum G.K. The Cambridge grammar of the English language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – P. 188.

⁵⁹ Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman grammar of spoken and written English. – Harlow: Pearson Education Limited, 2021. – P. 482-499.

yoki subyektning muayyan faoliyatni amalga oshirish layoqatini ko'rsatadi. Ingliz tilida "can", "could", "be able to", "be capable of", "have the potential to", "have the ability to" kabi modal birliklar keng qo'llaniladi. Ular orqali muallif turli subyektlarning imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatini ifodalaydi hamda o'quvchiga ma'lum hodisaning yuz berish ehtimoli haqida ma'lumot beradi. O'zbek tilida esa "olmoq" ko'makchi fe'lining "-a" yoki "-y" ravishdoshi bilan qo'llanishi, shuningdek harakat nomi shaklidagi fe'lga "mumkin" modal so'zining qo'shilishi orqali imkoniyat va qobiliyat ma'nolari ifodalanadi. Gazeta sahifalarida ushbu modal birliklarning ishlatilishi ko'p jihatdan maqola mavzusi va muallif oldiga qo'ygan kommunikativ maqsadlarga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari yoki tibbiyot sohasidagi kashfiyotlar haqidagi maqolalarda ular ko'proq qo'llaniladi.

Tilshunoslikda "deontik modallik" tushunchasi "zaruriyat" va "majburiyat" kabi modal ma'nolarni ifodalash uchun qo'llaniladi. J.Layonz deontik modallikni "biror harakatni amalga oshirishga undovchi yoki majbur etuvchi omillar" sifatida ta'riflaydi⁶⁰. Uning fikricha, deontik modallik ko'pincha ish-harakatni bajarishga undovchi aniq manba (masalan, ijtimoiy normalar yoki shaxsiy majburiyatlar) ni ko'rsatmaydi. Ko'p hollarda muayyan harakatni bajarishga majbur etuvchi sabablarni aniq bilmaymiz yoki ifoda etmaymiz. Masalan, "Bola to'garaklarga borishi, jamoaviy ishlashni o'rganishi kerak" (Qoravulbozor. 2024-yil, 3-son) gapida to'garakka borishning zarurati ijtimoiy normalar yoki shaxsiy majburiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ammo bu aniq ko'rsatilmagan.

Majburiyat va zaruriyat ma'nolarini ifodalovchi modal birliklar gazeta matnlarining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ular muallifning kommunikativ maqsadlarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu birliklar muallifga o'z fikrlarini aniq, qat'iy va ishonchli tarzda yetkazish, o'quvchiga ta'sir etish, uni muayyan harakatlarni bajarishga undash yoki majbur qilish imkonini beradi. Ingliz tilida "must", "have to", "need to", "should", "ought to" kabi modal fe'llar, "necessary", "obligatory", "compulsory", "urgent" singari sifatlar, "obligation", "necessity" kabi otlar hamda "it is essential that", "it is crucial that", "it is imperative that" kabi subyektiv-baholovchi konstruksiyalar majburiyat va zaruriyat ma'nosini ifodalashda faol qo'llaniladi. O'zbek tilida esa bu vazifani "-(i)sh kerak", "-(i)sh lozim", "-(i)sh shart", "-ish zarur" kabi modal konstruksiyalar bajaradi. Mazkur birliklar muallifning voqelik hodisalariga nisbatan pozitsiyasini ifodalash, o'quvchining dunyoqarashi va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Bobning 3-bo'limida "**Gazeta matnlarida subyektiv modallikni ifodalovchi vositalar**" tahlil qilingan.

Gazeta matnlarida subyektiv modallikni ifodalovchi vositalar alohida o'rin tutadi, chunki ular maqolaning ta'sirchanligini oshirish, o'quvchiga ta'sir etish va muallif fikrini gazetxonlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Subyektiv modallik esa "so'zlovchining aytilayotgan fikr (ishonch yoki ishonchsizlik, rozilik yoki

⁶⁰ Lyons J. Semantics. Vol. 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 819-828.

norozilik, ekspressiv baho)ga munosabatini ko'rsatadi"⁶¹. Subyektiv modallik gazeta matnlarida emotsional-ekspressiv leksika, modal so'zlar, modal yuklamalar, murojaat shakllari, undovlar, affiks va affiksionlar, prosodik vositalar, intonatsiya, to'liqsiz fe'llar va sintaktik qurilmalar orqali ifodalanadi.

O'zbek va ingliz tillaridagi gazeta matnlarida subyektiv modallikni ifodalash uchun turli xil leksik, grammatik va prosodik vositalardan foydalaniladi. Ular muallifning his-tuyg'ularini, hissiy munosabatini va fikrga bo'lgan pozitsiyasini aks ettiradi hamda o'quvchiga ta'sir qilishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilida emotsional-ekspressiv sifatlilar, otlar, fe'llar, frazeologizmlar va ko'chma ma'noli ifodalar keng qo'llaniladi. Ingliz tilida esa ijobiy va salbiy bo'yoqli sifatlilar, otlar, fe'llar, ravishlar, idiomalar va metaforalar faol ishlatiladi. Ular muallifning subyektiv munosabatini, maqtov, tanqid, xursandchilik, afsus kabi turli emotsional holatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Modal so'zlar ham fikrning aniqlik darajasini, muallifning ishonch, gumon, taxmin kabi kognitiv-emotsional holatlarini bildiradi. O'zbek va ingliz tillaridagi modal so'zlar fikrlarni bog'lash, ularning ketma-ketligini ta'minlash, ta'kidlash yoki zidlash uchun qo'llaniladi.

Modal yuklamalar va undov so'zlar nutqqa emotsional bo'yoq beradi, so'roq, taajjub, hayratlanish, kuchaytiruv, ta'kid, ayiruv-chegaralov, gumon, o'xshatish-qiyoslash, inkor kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ular muallifning hissiy holatini aks ettirish bilan birga, o'quvchining e'tiborini jalb qiladi.

Affiks va affiksionlar, jumladan, kichraytirish-erkalash shakllari so'zlovchining munosabatini, his-tuyg'ularini bildiradi. Ingliz tilida esa bunday vositalar cheklangan bo'lib, ko'proq kontekst orqali anglashiladi.

Prosodik vositalar, ya'ni ohang, urg'u va intonatsiya muallifning emotsional holatini, fikrga munosabatini aks ettiradi va maqolaning ta'sirchanligini oshiradi. Sintaktik qurilmalar, xususan, so'roq, buyruq, ritorik so'roq gaplar ham ekspressivlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Murojaat birliklari esa muallifning tinglovchiga munosabatini, hurmat darajasini va milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon etadi. O'zbek tilidagi murakkablashgan sodda gaplarda aksiologik modallik yaqqol sezilib turadi.

Fe'l mayllari, modal fe'llar, shart ergash gaplari ham o'zbek va ingliz tillaridagi gazeta matnlarida subyektiv modallik ifodasining muhim vositalaridir. Ular buyruq, istak, maslahat, shart, imkoniyat, majburiyat kabi turli modal ma'nolarni anglatadi.

Dissertatsiyaning 3-bobi **Ingliz va o'zbek gazetalarida modallikni ifodalovchi vositalarining korpusga asoslangan tahlili** deb nomlanib, ingliz va o'zbek gazetalarida modal birliklarning semantik-funksional tahliliga bag'ishlangan.

Zamonaviy ingliz gazetalarida jamiyat hayotining turli sohalarida yuz berayotgan voqea-hodisalarni yoritishda modal birliklardan unumli foydalaniladi. Ular muallifning fikrlarini ifodalash, taxminlarni bildirish, o'quvchilarni ishontirish yoki dalillarni keltirish kabi vazifalarni bajaradi. Shu bois, ingliz gazetalarida modal

⁶¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6 т. — Т., 2000. — Б. 42.

birliklarning ishlatilishini tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot COCA (Corpus of Contemporary American English) korpusining “Newspapers” boʻlimida 9 ta asosiy modal feʼllar (can, could, may, might, must, shall, should, will va would) va ayrim modal soʻzlarning qoʻllanilish chastotasini aniqlash hamda ularning semantik-funksional xususiyatlarini oʻrganishni maqsad qiladi.

Modal birliklarning chastotasini aniqlash gazeta matnlarida modallikning qay darajada qoʻllanilishini koʻrsatadi. Bu maʼlumotlar modallikning gazeta matnlaridagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, ular modal birliklarning pragmatik vazifalarini, yaʼni muallifning fikrlarini ifoda etish, taxminlarni bildirish, oʻquvchilarni ishontirish yoki dalillarni keltirish kabi maqsadlarini aniqlashda ham muhim rol oʻynaydi.

“Newspapers” boʻlimi 121,741,989 ta soʻzni oʻz ichiga olgan. Biroq bu katta hajmdagi maʼlumotlarni toʻgʻridan-toʻgʻri taqqoslash va tahlil qilish murakkab boʻlishi mumkin. Shu sababli, olingan natijalarni 1 million soʻz proporsiyasi asosida hisoblash maqsadga muvofiq.

1 million soʻz proporsiyasi asosida hisoblash quyidagi formulaga asoslanadi: (modal birlikning soni / umumiy soʻzlar soni) * 1,000,000

Bu yerda “modal birlikning soni” – korpusda topilgan muayyan modal birlikning umumiy soni, “umumiy soʻzlar soni” esa – “newspapers” boʻlimidagi barcha soʻzlar soni, yaʼni 121,741,989.

Misol uchun, faraz qilaylik, “can” modal feʼli gazeta matnlarida 100,000 marta ishlatilgan. U holda, uning 1 million soʻz proporsiyasi quyidagicha hisoblanadi: $(100,000 / 121,741,989) * 1,000,000 = 821.37$

Bu shuni anglatadiki, agar “newspapers” boʻlimi 1 million soʻzdan iborat boʻlganida, “can” modal feʼli taxminan 821 marta qoʻllanilgan boʻlar edi.

Xuddi shu tarzda boshqa modal feʼllar va modal soʻzlarning 1 million soʻz proporsiyasi asosidagi chastotasi hisoblab chiqiladi. Bu usul turli hajmdagi korpuslar yoki korpusning turli boʻlimlari oʻrtasida modal birliklarning qoʻllanilish chastotasini solishtirish imkonini beradi.

“Diagramma 1” da koʻrsatilgan maʼlumotlarga asoslanib, quyidagi asosiy kuzatishlarni keltirib oʻtamiz:

–maʼlumotlar toʻplamida eng koʻp qoʻllanilgan modal feʼl “will” boʻlib, u 2571 marta ishlatilgan;

–ikkinchi oʻrinda “would” modal feʼli turadi va u 2031 marta qayd etilgan;

–“can” modal feʼli 1749 marta ishlatilishi bilan uchinchi oʻrinda turadi;

–“could” modal feʼli 1255 marta qoʻllanilgan boʻlib, koʻrsatilgan modal feʼllar orasida toʻrtinchi oʻrinda turadi;

–“may” modal feʼli 779 marta ishlatilgan;

–“should” modal feʼli maʼlumotlar toʻplamida 644 marta qayd etilgan;

–“might” modal feʼli 431 marta ishlatilgan;

–“must” modal feʼli boshqa modal feʼllarga nisbatan nisbatan kamroq, yaʼni 295 marta qoʻllanilgan;

–diagrammada eng kam uchraydigan modal feʼl “shall” boʻlib, u atigi 12 marta

qayd etilgan.

“Will”, “would” va “can” modal fe’llari ma’lumotlar to‘plamida eng ko‘p tarqalgan, “must” va “shall” modal fe’llari esa boshqalarga nisbatan sezilarli darajada past chastotaga ega.




Diagramma 1

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gazeta diskursida modal fe’llar “ehtimollik”, “imkoniyat”, “qobiliyat”, “zaruriyat” va “majburiyat” semantik mikromaydonlarida voqelanadi. Ushbu ma’nolar maqolalarda turli maqsadlar, jumladan, voqea-hodisalar haqida taxminlar bildirish, muqobil rivojlanish yo‘llarini tahlil qilish, kelajak istiqbollarini bashorat qilish, majburiyatlar va harakatlarning zarurligini ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Modal fe’llardan “will” (62%), “would” (43%), “may” (73%) va “might” (92%) “ehtimollik” semasini ifodalashda faol qo‘llanilgan bo‘lsa, “can” (56%) va “could” (59%) “imkoniyat” va “qobiliyat” mikromaydonini ifodalagan. “Should” (70%) va “must” (76%) fe’llari esa “zaruriyat” va “majburiyat” ma’nolarini yetkazishda muhim rol o‘ynagan.

Ingliz gazetalarida “ehtimollik”, “imkoniyat” va “qobiliyat” semalarining ustunlik qilishi bir qator omillar, jumladan, janrning o‘ziga xos xususiyatlari, jurnalistlarning tahliliy va istiqbolga yo‘naltirilgan yondashuvi, ularning individual uslubi va pragmatik maqsadlari hamda gazeta diskursining asosiy vazifalari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, “zaruriyat” va “majburiyat” semantik mikromaydonlarining ahamiyati ham yuqori bo‘lib, ular gazetaning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy funksiyalarini bajarishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda 55 ta ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishdagi o‘zbek gazetalarining 2024 yilgi sonlaridan foydalanildi. Gazetalarning elektron matnlari “Antconc” dasturi yordamida tahlil qilindi va “ehtimollik”, “imkoniyat”, “qobiliyat”, “zaruriyat” va “majburiyat” semantik mikromaydonlariga oid modal birliklar, jumladan, “-sa kerak”, “-(i)shi mumkin”, “-dir”, “-(a)r”, “mumkin”, “-a olmoq”, “-(i)sh kerak”, “-(i)sh lozim”, “-(i)sh shart”, “-ish zarur” kabi konstruksiyalar qidirildi hamda ularning chastotasi, kontekstual va funksional xususiyatlari o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek gazetalarida modal birliklardan “ehtimollik” semantik mikromaydoniga oid vositalar eng faol qo‘llanilgan bo‘lib,

ular taxminan 48% ulushni tashkil etadi. Zaruriyat va majburiyat semasini bildiruvchi birliklar 32% ishlatilgan bo'lsa, imkoniyat va qobiliyat semantik mikromaydoniga oid modal birliklar 20% ishlatilgan.

Modal birliklarning semantik va funksional xususiyatlariga ko'ra, "ehtimollik" semasini ifodalovchi vositalar voqea-hodisalarning ro'y berish darajasini va muallifning taxminini bildirsa, "zaruriyat" va "majburiyat" ma'nolarini ifodalovchi birliklar esa ish-harakatlarning bajarilishi shart ekanligini, muallifning istak va talabini ifodalaydi. "Imkoniyat" va "qobiliyat" semasini bildiruvchi modal birliklar ko'proq shaxslarning bilim, ko'nikma va sharoitga bog'liq holda ish-harakatlarni bajarish layoqatini aks ettiradi.

O'zbek gazetalarida modal birliklarning qo'llanilishi matn uslubi, janri va mavzusiga ko'ra farqlanadi. Rasmiy, ilmiy-publitsistik matnlarda "zaruriyat" va "majburiyat" semantik mikromaydoniga oid modal birliklar ko'proq qo'llanilsa, suhbat va badiiy uslubdagi matnlarda "ehtimollik" va "taxmin" ma'nolarini bildiruvchi modal so'zlar ustunlik qiladi. Siyosiy va iqtisodiy mavzulardagi matnlarda "zaruriyat" va "majburiyat" ma'nolari ko'proq uchraydi.

Ingliz va o'zbek gazetalarida modal birliklarning qo'llanilishini qiyosiy o'rganish ushbu birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz gazetalarida modal birliklarning umumiy qo'llanilish chastotasi o'zbek gazetalariga nisbatan biroz yuqori bo'lib, bu ingliz tilida modal fe'llar tizimining yaxshi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Ingliz gazetalarida ehtimollik ma'nosini ifodalovchi "will", "would", "may" kabi modal fe'llar ko'proq qo'llanilib, ular muallifning taxminlari va bashoratlarini ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek gazetalarida esa bu vazifa asosan "-sa kerak", "(i)shu mumkin" kabi analitik konstruksiyalar orqali amalga oshiriladi.

Imkoniyat va qobiliyat ma'nolarini ifodalashda ingliz tilida "can" va "could" modal fe'llari, o'zbek tilida esa "mumkin", "-a olmoq" kabi vositalar ishlatiladi. Zaruriyat va majburiyat ma'nolarini ifodalashda ingliz tilida "must" va "should", o'zbek tilida "-ish kerak", "-ish lozim" kabi birliklar qo'llaniladi.

Modal birliklarning pragmatik vazifalariga ko'ra, ingliz gazetalarida ular ko'proq muallif va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni yo'lga qo'yish vositasi sifatida xizmat qilsa, o'zbek gazetalarida o'quvchiga ta'sir o'tkazish, uni ma'lum xatti-harakatlarga undash maqsadida qo'llaniladi.

Har ikki tilda ham modal birliklarning qo'llanilishi gazeta janri va uslubi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yangiliklarda ular kam ishlatilsa, tahliliy maqolalar, intervyular va rasmiy hujjatlarda keng qo'llaniladi.

XULOSA

1. Modallik kategoriyasi inson tafakkuri va nutqida muhim o'rin tutadi. Bu murakkab hodisani to'liq anglash uchun faqatgina bir fan doirasida emas, balki falsafa, mantiq, psixologiya va tilshunoslik kabi turli fanlar hamkorligida tadqiq etish zarur. Har bir fan o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, modallikning turli qirralarini ochib beradi.

2. Modallik lisoniy va nolisoniy omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadigan ko'p qirrali fenomendir. Uning mohiyatini chuqur anglash uchun tilning turli sath va birliklarini, shuningdek, paralingvistik vositalarni ham e'tiborga olish lozim. Chunki modallik nafaqat so'zlar, grammatik shakllar orqali, balki imo-ishoralar, mimika va intonatsiya kabi vositalar yordamida ham ifodalanadi.

3. Gazeta tili jamiyat hayotidagi muhim voqea va hodisalarni aks ettiruvchi hamda jurnalistlarning turli fikr-mulohazalari, g'oyaviy qarashlarini ifodalovchi muhim lisoniy vositadir. Unda adabiy til me'yorlari saqlanishi bilan bir qatorda, publitsistik, badiiy va ilmiy uslublarning o'ziga xos xususiyatlari ham uyg'unlashib, o'ziga xos gazeta til yuzaga keladi.

4. Gazeta tilining ommabopligi, sodda va tushunarli bo'lishi muhim talablardan biridir. U badiiy obrazlilik va emotsionallik xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Gazeta tilida so'z va iboralar orqali aniqlik va ixchamlik ta'minlanadi. Muallif har bir fakti aniq va ishonchli asoslashi, shu bilan birga, fikrlarni lo'nda va ravon ifodalashi talab etiladi. Gazetada e'lon qilinadigan materiallar turli janrlarga mansub bo'lib, ularning har birida modallikning turli ko'rinishlari kuzatiladi. Munozaralik ruhi gazeta tilining yana bir muhim lingvistik xususiyatidir.

5. Modallik publitsistik matnlarda muallifning voqelikka va o'quvchiga munosabatini bildirish, matnning ta'sirchanligini oshirish hamda o'quvchini ma'lum fikrga ishontirish vazifasini bajaradi. U muallifning dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiradi, fikrining qat'iyligi yoki gumonlilikini ifodalaydi. Shuningdek, modallik o'quvchini muayyan pozitsiyani qabul qilishga undash va ishontirishda muhim rol o'ynaydi.

6. Gazeta sarlavhalari maqola mazmunini aks ettirish, o'quvchini jalb qilish va qiziqtirish vazifasini bajaradi. Ularda modallik muhim o'rin tutib, turli grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanadi. Modallik sarlavhaning ajralmas xususiyati bo'lib, janr, mavzu va kommunikativ maqsad ta'sirida namoyon bo'ladi hamda muallif pozitsiyasini ifodalashga xizmat qiladi.

7. "Imkoniyat" va "qobiliyat" mazmunini ifodalovchi modal birliklar ko'proq ilmiy yutuqlar, texnika taraqqiyoti, yangi kashfiyotlarga bag'ishlangan maqolalarda qo'llaniladi. Ular orqali muallif o'quvchini kutilayotgan o'zgarishlar, yangiliklarning ahamiyati va samarasi haqida xabardor qiladi, shu bilan birga, ularni muayyan sohalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar sifatida taqdim etadi.

8. "Zaruriyat" va "majburiyat" mazmunini ifodalovchi modal birliklar jamiyat oldidagi dolzarb muammolarni ko'tarishda, keng jamoatchilikni muayyan yo'nalishda fikrlash va harakat qilishga undashda muhim rol o'ynaydi. Ular maqola muallifining o'z fikrlarini asoslash, o'quvchilarning ishonchini qozonish va ular ongiga ma'lum bir fikrni singdirishda faol qo'llaniladi.

9. Ingliz va o'zbek gazetalarida modal birliklarning qo'llanilishi gazeta matnlarining janr xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Turli janrdagi matnlar, jumladan, yangiliklar, tahliliy maqolalar va intervyularda modal birliklarning o'ziga xos qo'llanilish tamoyillari mavjud bo'lib, ular matnning kommunikativ-pragmatik maqsadiga muvofiq farqlanadi. Yangiliklarda voqea-hodisalarning aniq va ishonchli yoritilishi asosiy vazifa bo'lgani bois, ularda ehtimollik, taxmin va bashoratni ifodalovchi modal birliklar nisbatan kam qo'llaniladi. Biroq tahliliy maqolalar va

sharhlarda muallif fikrining asoslanganligi, dalillar va mulohazalarning atroflicha tahlil etilishi talab qilingani sababli, bunday matnlarda muallif pozitsiyasini ifodalovchi, uning fikrini quvvatlovchi modal birliklar faol ishlatiladi. Intervyularda esa soʻzlovchilar nutqini toʻgʻridan-toʻgʻri keltirishda modal birliklar orqali ularning munosabati, pozitsiyasi yaqqolroq namoyon boʻladi.

10. Ingliz va oʻzbek tilidagi gazeta matnlarida modal feʼllarning qoʻllanilishi kontekstga, muallif maqsadiga va janr xususiyatlariga koʻra farqlanadi. Masalan, yangiliklar va tahliliy maqolalarda ehtimollik va taxmin semalari keng qoʻllanilib, muallif oʻz bashoratlarini bildirsa, intervyu va reportajlarda imkoniyat va qobiliyat maʼnolari ustunlik qiladi. Bundan tashqari, rasmiy xabarlarda aniqlik va qatʼiylik muhim boʻlgani uchun zaruriyat va majburiyat modal feʼllari tez-tez uchraydi.

11. Ingliz gazetalarida modal feʼllar asosan muallifning subyektiv munosabatini, uning kommunikativ maqsadlarini, shuningdek, voqea-hodisalarga nisbatan pozitsiyasini ifodalash uchun qoʻllaniladi. Oʻzbek gazetalarida esa modal maʼnolar koʻproq buyruq, talab, maslahat va tavsiyanoma xarakteridagi matnlarda ishlatiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 AT NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

OBILOV MUZAFFAR ODILJON O'G'LI

**SEMANTIC AND FUNCTIONAL FEATURES OF MODAL MEANS IN
ENGLISH AND UZBEK JOURNALISTIC TEXTS**

**10.00.06 –Comparative Literature Studies, Contrastive Linguistics
and Translation Studies**

ABSTRACT

of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES

Namangan – 2025

The dissertation topic for Doctor of Philosophy (PhD) was registered under number B2024.3.PhD/Fil5099 at the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation has been done at Namangan State University.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) has been placed on the webpage of the Scientific Council at www.namdu.uz and on the web-site of information-educational portal «Ziyonet» www.ziyonet.uz

Scientific advisor: Ismoilov Gulom Mirzayevich
Candidate of Philological Sciences, Docent

Official opponents: Abduvaliyev Muhammadjon Arabovich
Doctor of Philological Sciences (DSc), professor
Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich
Candidate of Philological Sciences, Docent

Leading organization: Fergana State University

The defense of the dissertation will be held on "19" march 2025 at 15:00 at a meeting of the Scientific Council PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 under Namangan State University (Address: 160107, 161, Boburshoh street, Namangan city. Tel: (99869) 228-85-01; fax: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

The dissertation is available at the Information Resource Center of Namangan State University (registered under № 1752) (Address: 160107, 161, Boburshoh Street, Namangan city. Phone. (99869) 228-85-01).

The dissertation abstract was distributed on "6" march 2025.
(Register protocol No 04/06 dated "21" "12" 2025)



A.I.Ziyuev
Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor
of Philological Sciences, Professor

N.A.Mamudjanova
Scientific Secretary of the Scientific
Council on awarding of scientific
degrees, Doctor of Philosophy in
Pedagogical Sciences (PhD), Docent

K.A.Sidikov
Chairman of the Scientific Seminar
at the Scientific Council awarding
scientific degrees, Candidate of
